



SOUTH KOREA'S MODERN PARTY SYSTEM: FRAGMENTATION, ARTIFICIAL PARTIES, AND DEMOCRATIC PROCESSES

Sanjar Yakhshilikov

Head of the International Cooperation Department

Jizzakh State Pedagogical University

yaxshiliqov9606@gmail.com

Jizzakh, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: South Korea, political parties, party system, electoral system, proportional representation, satellite parties.

Received: 25.08.25

Accepted: 26.08.25

Published: 27.08.25

Abstract: This article provides a scholarly analysis of the characteristics of South Korea's party system and the evolution of its electoral system. It highlights key aspects such as the high volatility of political parties in the country, their weak institutionalization, and their factional nature. The study explains, with examples, processes such as frequent party name changes, splits, mergers, and the phenomenon of "party skin changing." The article thoroughly examines the mixed electoral system introduced as part of democratic reforms after 1987, its transition to a two-ballot system starting in 2004, and the introduction of semi-proportional elements as a result of the 2020 reforms. It analyzes the impact of this system on the strategies of large and small parties, the formation of artificial (satellite) parties, and mechanisms for expanding parliamentary representation through them.

The findings show that although South Korea's political system remains dominated by two main blocs, small parties are gaining parliamentary seats mainly through proportional lists or by forming alliances with larger parties.

JANUBIY KOREYANING ZAMONAVIY PARTIYA TIZIMI: FRAGMENTATSIYA, SUN'IY PARTIYALAR VA DEMOKRATIK JARAYONLAR

Sanjar Yakhshilikov

Jizzax davlat pedagogika universiteti Xalqaro hamkorlik bo'limi boshlig'i

yaxshiliqov9606@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Janubiy Koreya, siyosiy partiyalar, partiyaviy tizim, saylov tizimi, proporsional vakillik, yo'ldosh partiyalar.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Janubiy Koreya partiyaviy tizimining xususiyatlari va saylov tizimining evolyutsiyasi ilmiy tahlil qilinadi. Maqolada mamlakatdagi siyosiy partiyalarning yuqori darajadagi o'zgaruvchanligi, zaif institutsionallashtirilganligi va fraksion xarakteri asosiy jihatlar sifatida ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqotda partiyalarning tez-tez nom o'zgartirishi, bo'linishi va birlashishi jarayonlari, shuningdek, "partiyaviy teri almashtirish" hodisasi misollar asosida izohlanadi. Maqolada 1987-yildan keyingi demokratik islohotlar doirasida joriy etilgan aralash saylov tizimi, uning 2004-yildan boshlab ikki byulletenli shaklga o'tishi va 2020-yildagi islohotlar natijasida yarim proporsional elementlarning joriy etilishi batafsil ko'rib chiqilgan. Ushbu tizimning yirik partiyalar va kichik partiyalar strategiyalariga ta'siri, sun'iy (yo'ldosh) partiyalar tashkil etilishi va ular orqali parlamentdagi vakillikni kengaytirish mexanizmlari tahlil qilingan.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, Janubiy Koreyada siyosiy tizim ikki asosiy blok ustunligida qolayotgan bo'lsada, kichik partiyalar asosan proporsional ro'yxatlar orqali yoki yirik partiyalar bilan ittifoq tuzish yo'li bilan parlamentda o'rin egallamoqda.

СОВРЕМЕННАЯ ПАРТИЙНАЯ СИСТЕМА ЮЖНОЙ КОРЕИ: ФРАГМЕНТАЦИЯ, ИСКУССТВЕННЫЕ ПАРТИИ И ДЕМОКРАТИЧЕСКИЕ ПРОЦЕССЫ

Санджар Яхшиликов

Руководитель отдела международного сотрудничества,
Джизакский государственный педагогический университет
yaxshilicov9606@gmail.com
Джизак, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Южная Корея, политические партии, партийная система, избирательная система, пропорциональное представительство, спутниковые партии.

Аннотация: В данной статье проводится научный анализ особенностей партийной системы Южной Кореи и эволюции её избирательной системы. В статье подчёркиваются такие ключевые аспекты, как высокая изменчивость политических партий в стране, слабая институционализация и фракционный характер. В исследовании на примерах

объясняются процессы частой смены названий партий, их расколов и слияний, а также феномен «смены партийной кожи». В статье подробно рассматривается смешанная избирательная система, внедрённая в рамках демократических реформ после 1987 года, её переход к двухбюллетенной форме с 2004 года и введение полу-пропорциональных элементов в результате реформ 2020 года.

Анализируется влияние данной системы на стратегии крупных и мелких партий, создание искусственных (спутниковых) партий и механизмы расширения парламентского представительства через них.

Результаты показывают, что, несмотря на доминирование двух основных блоков в политической системе Южной Кореи, малые партии в основном получают места в парламенте через пропорциональные списки или путём создания союзов с крупными партиями.

Kirish. Janubiy Koreya siyosiy tizimi zamonaviy demokratik institutlar shakllangan davlatlar orasida o'ziga xos xususiyatlarga ega. Xususan, partiyaviy tizimning yuqori darajadagi o'zgaruvchanligi va zaif institutsionallashuvi mamlakat siyosiy jarayonlarini G'arb demokratiyalaridan keskin farqlantiradi. Partiyalarning tez-tez nom o'zgartirishi, bo'linishi va birlashishi "partiyaviy teri almashtirish" fenomeni sifatida talqin qilinib, siyosiy elitaning shaxsiy manfaatlari va fraksion raqobati bilan bevosita bog'lanadi. Shu jihatdan Janubiy Koreya tajribasi siyosiy partiyalar barqarorligining demokratik rivojlanishdagi o'rni va saylov tizimining partiyaviy raqobatga ta'sirini o'rganishda muhim empirik maydon hisoblanadi.

Mazkur maqolada Janubiy Koreyaning 1987-yildan keyingi demokratik islohotlaridan boshlab saylov tizimining evolyutsiyasi va partiyaviy tizimning zamonaviy dinamikasi ilmiy tahlil qilinadi. Xususan, ikki byulletenli tizimga o'tish (2004), yarim proporsional vakillik elementlarining joriy etilishi (2020), sun'iy partiyalar fenomeni va kichik partiyalarning vakillikka kirish imkoniyatlari alohida o'rganiladi. Maqolaning dolzarbligi shundaki, Janubiy Koreya tajribasi o'rta darajada institutsionallashgan, lekin yuqori raqobatbardosh siyosiy tizimlarda partiyaviy beqarorlikning oqibatlarini tahlil qilish imkonini beradi.

Metodologiya tahlili. Ushbu tadqiqot sifat jihatdan qiyosiy-siyosiy tahlil metodlariga asoslangan bo'lib, Janubiy Koreya saylov tizimi va partiyaviy tizimining rivojlanishini tarixiy-siyosiy jarayonlar kontekstida o'rganadi. Maqolada asosan quyidagi metodologik yondashuvlar

qo'llanilgan: Tarixiy-institutsional tahlil – 1987-yildagi demokratik o'zgarishlardan boshlab saylov tizimining evolyutsiyasi bosqichma-bosqich tahlil qilinadi. 2004-yildan ikki byulletenli tizimga o'tish, 2020-yildagi yarim proporsional elementlar va ular partiyaviy raqobatga ko'rsatgan ta'sir konstitutsiyaviy va institutsional manbalar asosida o'rganiladi. Solishtirma yondashuv – Janubiy Koreya partiya tizimi Yaponiyaning Liberal-demokratik partiyasi yoki Tayvanning Xitoy Milliy partiyasi kabi uzoq tarixga ega va barqaror institutlar bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Bu usul orqali Koreyadagi partiyaviy beqarorlikning xususiyatlari va sabablarini aniqlash maqsad qilingan. Amaliy siyosiy jarayonlarni kuzatish – 2016-yildagi korrupsiya mojarosidan keyingi konservativ partiyalarning bo'linishi, 2020-yilgi saylov islohotlaridan keyingi sun'iy partiyalarning shakllanishi, 2024-yilgi saylovlarda ittifoqlar tuzilishi kabi misollar empirik material sifatida tahlil qilingan.

Metodologik yondashuvlarning uyg'unligi Janubiy Koreya partiya tizimidagi o'zgarishlarning ichki (elita fraksionchiligi, shaxsiy manfaatlar) va tashqi (saylov tizimidagi islohotlar) omillarini kompleks ravishda ochib berishga imkon beradi.

Janubiy Koreya partiyaviy tizimi yuqori darajadagi o'zgaruvchanlik va sust institutsionallashuv bilan xarakterlanadi. Partiyalar tez-tez nomini o'zgartiradi, bo'linadi yoki qayta birlashadi. 1987-yildagi demokratik islohotlardan keyingi davrda esa har bir saylovda ko'plab yangi partiyalar paydo bo'lgan, biroq ularning aksariyati qisqa vaqt ichida siyosiy maydondan yo'qolib ketgan. Tadqiqotchilar Cho va Krushevskaya qayd etishicha, Janubiy Koreyaning dastlabki olti post-demokratik parlament saylovlarida jami 53 ta siyosiy partiya qatnashgan, biroq ulardan atigi uchta hozirgacha faoliyat yuritib kelmoqda [1].

O'rtacha koreys siyosiy partiyasining umr ko'rish muddati atigi besh yilni tashkil qiladi [2], bu ko'rsatkich rivojlangan demokratiyalardagi yirik partiyalarnikidan sezilarli darajada qisqa. Masalan, Yaponiyaning Liberal-demokratik partiyasi (LDP) olti o'n yildan ortiq, Tayvanning Xitoy Milliy partiyasi (KMT) esa qariyb yuz yil davomida siyosiy maydonda faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Koreyada esa yetakchi konservativ va progressiv kuchlar bir necha bor qayta nomlanish va tashkiliy yangilanish jarayonidan o'tgan. Bugungi "Xalq Kuchi partiyasi" tarix davomida o'n martadan ko'proq nomini almashtirgan, hozirgi Demokratik partiya esa 1955-yildan beri yigirmaga yaqin marta turli nomlar ostida saylovchilarga yuzlangan [3].

Bu holat ilmiy adabiyotda "partiyaviy teri almashtirish" (political skin-shedding) deb ta'riflanadi. Bunda tashqi ko'rinish va nomdagi o'zgarishlar ortida aslida bir xil siyosiy elita va ijtimoiy tarmoqlar yangi brend ostida siyosiy faoliyatini davom ettiradi. Shu orqali Janubiy

Koreyada partiyalarning zaif institutsionallashtirishgani va siyosiy jarayonda shaxsiy omil ustuvorligi namoyon bo'ladi.

Bunday yuqori darajadagi o'zgaruvchanlik saylov jarayonlarida beqarorlikni kuchaytiradi. Masalan, barqaror demokratiyalarda saylovchilar odatda uzoq tarixga ega partiyalar ro'yxati bilan duch kelsa, Janubiy Koreyada har bir saylovda yangidan-yangi partiyalar paydo bo'ladi. Tavitsning hisob-kitoblariga ko'ra, 1960–2002 yillarda 22 ta OECD mamlakatida har bir saylovda o'rtacha 1,4 ta yangi partiya tashkil etilgan bo'lsa, Koreyada bu ko'rsatkich ancha yuqori bo'lgan [4].

Xulosa qilib aytganda, mamlakatda konservativ va progressiv kuchlar o'rtasida de-fakto ikki partiyali tizim saqlanib qolayotganiga qaramay, partiya nomlari doimiy ravishda o'zgaradi. Bu Janubiy Koreya partiyaviy tizimini G'arb demokratiyalariga qaraganda ancha beqaror ko'rsatadi. Chunki G'arb mamlakatlarida partiyalar odatda uzoq tarixiy nomlar, barqaror ideologiyalar va chuqur ijtimoiy ildizlarga ega. Koreya tajribasi esa partiyaviy institutlarning kuchsizligi, siyosiy tuzilmalar ko'pincha yetakchilarning shaxsiy manfaatlariga mos shakllanishi va qayta brendlanishi, natijada raqobat hamda saylovchilarning ishonchiga salbiy ta'sir ko'rsatishini yaqqol namoyon qiladi.

Partiyalarning nom almashtirish, qo'shilish va bo'linish omillari. Janubiy Koreyada partiya nomlarining tez-tez o'zgarishi, bo'linish va qayta birlashish holatlari, asosan, siyosiy elita ichidagi fraksion kurashlar, kuchsiz ideologik asos va strategik hisob-kitoblardan kelib chiqadi. Mamlakat partiyalari ko'proq shaxsiy liderlikka tayanadi va keng ijtimoiy a'zolik bazasiga ega emasligi sababli ichki ziddiyatlarga juda sezgir bo'ladi. Natijada yetakchining mag'lubiyati yoki korrupsiya kabi mojarolar ko'pincha yangi bo'linish yoki nom almashtirishga olib keladi.

Tadqiqotchilar Kim va Kukning fikricha, yirik partiyalardagi o'zgarishlar ko'pincha chuqur ideologik tafovutlardan emas, balki lavozim va nomzodliklar ustidagi kelishmovchiliklar yoki jamoatchilik ko'z o'ngida obro'ni saqlab qolish istagidan kelib chiqadi [5]. Masalan, 2016-yilda Park Geun-hye bilan bog'liq korrupsiya janjali ortidan Saenuri partiyasi ikkiga bo'lindi: bir guruh "Bareun" partiyasini tuzdi, qolganlari esa nomini bir necha marta o'zgartirib, hozirgi "Xalq Kuchi partiyasi" sifatida qayta tashkil topdi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, tashqi ko'rinishda nomlar va belgilar yangilansa-da, asl siyosiy elita va norasmiy tarmoqlar deyarli o'zgarmay qoladi. Bu "bo'linish va birlashish" jarayoni ko'pincha siyosiy maydondan chetlatilgan guruhlarining qayta siyosatga kirishi yoki avvalgi obro'dan halos bo'lish vositasi sifatida ishlaydi [6].

Saylov tizimi ham bu jarayonni kuchaytiradi. Chunki partiya nomining o'zi katta jozibaga ega emasligi sabab, siyosatchilar uchun yangi partiya tuzish yoki unga qo'shilish katta xavf

tug'dirmaydi. Cho va Kruszewskaning ta'kidlashicha, korrupsiya yoki mag'lubiyatdan keyin siyosatchilar "jamoaviy javobgarlikdan qochish" uchun tezda yangi nom ostida saylovga kirishlari mumkin. Bir mandatli okruglar hukmron bo'lgan Koreya saylov tizimida bunday yangi yoki qo'shilgan partiyalar odatda zaruriy o'rinlarni qo'lga kiritib, parlamentga kirish imkoniga ega bo'ladilar. Hatto kichik partiyalar ham moliyaviy qo'llab-quvvatlash va qonunchilikdagi muzokara huquqini saqlab qolish uchun birlashishga majbur bo'ladilar. Shu tariqa, siyosiy tizim doimiy o'zgaruvchanlik va harakatchanlik bilan tavsiflanadi.

Saylov tizimi va partiyalarning parlamentdagi roli. 1987-yildagi demokratik islohotlardan keyin Janubiy Koreyada Milliy Assambleya uchun aralash saylov tizimi joriy etildi. 1988-yildan, ya'ni Oltinchi Respublika davridan boshlab, deputatlar ikki usul orqali saylana boshladi: bir mandatli okruglardagi eng ko'p ovoz olgan nomzodlar (first-past-the-post, FPTP) va butun mamlakat bo'yicha tuzilgan proporsional ro'yxatlar (proportional representation, PR). Ushbu mexanizm "qo'shimcha a'zolik" tizimi sifatida tanilgan [7].

Dastlab, parlamentdagi o'rinlarning taxminan uchdan biri proporsional vakillikka, qolganlari esa ko'pchilik ovozi bilan saylangan nomzodlarga ajratilgan edi. Masalan, 1996-yilgi saylovda 299 o'rindan 253 tasi FPTP okruglarida, 46 tasi esa PR orqali taqsimlangan. O'sha davrda saylovchilar yagona byulleten orqali bir vaqtning o'zida ham nomzod, ham partiya ovoz berishgan. Biroq 2001-yilda Konstitutsiyaviy sud bunday amaliyotni "demokratik irodaning buzilishi" sifatida tanqid qilib, uni isloh qilishni talab qildi [8]. Natijada, 2004-yildan ikki byulletenli tizim joriy qilindi: biri hududiy nomzod, ikkinchisi partiya ro'yxati uchun. 2016-yildan boshlab parlamentning umumiy tarkibi qat'iy 300 o'rin etib belgilandi: 253 tasi hududiy okruglardan, 47 tasi esa proporsional ro'yxatlar orqali. Shu bilan birga, proporsional tizimning ulushi ataylab kichik saqlanib, faqat 15,7 foizni tashkil etadi. PR o'rinlarini qo'lga kiritish uchun partiya milliy miqyosda kamida 3 foiz ovoz olishi yoki kamida 5 ta okrugda g'alaba qozonishi kerak. Amalda esa ushbu tizim kichik partiyalarga faqat cheklangan darajada vakillik imkonini beradi va parlament asosan ikki yirik blok, konservativ va liberal kuchlar, tomonidan shakllantiriladi.

2020-yilgi saylov islohoti va "aralash a'zolik" tizimi. 2019-yil dekabrda Janubiy Koreya Milliy Assambleyasi saylov qonuniga o'zgartirish kiritib, 2020-yilgi parlament saylovlari uchun yangi tartibni belgiladi. Deputatlar soni o'zgarmadi (300: 253 tasi hududiy okruglardagi g'oliblar, 47 tasi partiyaviy ro'yxat orqali), biroq proporsional o'rinlarni taqsimlash mexanizmi yangilandi. Endilikda 47 ta proporsional o'rindan 30 tasi kompensatsion "yarim aralash proporsional" formula asosida hisoblanadigan bo'ldi [9]. Bu kichik partiyalar ovoz ulushini aniqroq ifodalash va ularning parlamentdagi ulushini oshirish maqsadida joriy qilindi.

Amalda tizim “parallel” usul o‘rniga yarim proporsional shaklga aylandi. Saylovchilar yana ikkita byulleten to‘ldirishdi: biri hududiy nomzod, ikkinchisi partiya uchun. Lekin yangi hisoblash tartibida partiyaga beriladigan proporsional o‘rinlar uning okruglarda olgan natijalari bilan muvofiqlashtirildi. Shunga ko‘ra, partiyaning milliy ovoz ulushi umumiy o‘rinlarning yarmiga ko‘paytiriladi, undan okruglarda qo‘lga kiritilgan o‘rinlar ayiriladi. Hosil bo‘lgan raqam asosida 30 ta kompensatsion mandat taqsimlanadi, qolgan 17 ta esa odatdagidek milliy ovoz ulushiga qarab beriladi.

Partiyalar o‘rtasidagi raqobat va fragmentatsiya. Janubiy Koreyada siyosiy maydon asosan ikki yirik blok – konservatorlar va liberallar – hukmronligida qolmoqda. Biroq yarim aralash proporsional tizim (semi-MMP) joriy etilishi partiyalar o‘rtasida yangi strategik harakatlarga sabab bo‘ldi. Katta partiyalar proporsional ro‘yxatlar orqali qo‘shimcha mandat olish uchun sun‘iy (“yo‘ldosh”) partiyalar tuzdilar [10]. Masalan, 2020-yilgi saylovlarda konservativ Erkin Koreya partiyasi “Kelajak Koreya partiyasi”ni, Demokratik partiya esa “Birgalikdagi fuqarolar”ni tashkil etdi. Bu tuzilmalar faqat ro‘yxat bo‘yicha saylovda qatnashib, keyinchalik ota partiya qo‘shilishi rejalashtirilgan edi. Natijada ular nomutanosib tarzda ko‘p o‘rin oldi: konservatorlar 19, demokratlar esa 17 mandat qo‘lga kiritdi.

Katta partiyalar ayrim hududlarda ataylab nomzodlardan voz kechib, ularni yo‘ldosh partiyalar orqali saylovga kiritib, keyin birlashtirish yo‘li bilan qonundagi cheklovlardan qochishga ham erishdi. Bu amaliyot tizimdan maksimal siyosiy foyda olishga qaratilgan strategiya sifatida baholanadi.

Kichik partiyalar ham parlamentda ma’lum darajada vakillikka ega bo‘ldilar, biroq ular odatda kam sonli deputatlar bilan cheklanadi. 2020-yilda Adolat partiyasi 6 ta, Xalq partiyasi 3 ta o‘rin oldi, boshqa kichik partiyalar esa bittadan mandatga ega bo‘ldi [11]. Yangi qoidalar esa parlamentga kirish to‘sig‘ini yumshatib, 3% ovoz yoki 5 okrugda g‘alaba qozongan partiyalarga o‘rin olish imkonini berdi.

Shunga qaramay, bu vakillik siyosiy jarayonlarga katta ta’sir ko‘rsatmaydi. Janubiy Koreya tizimida rasmiy koalitsiya hukumatlari shakllantirilmaydi; prezident partiyasining oddiy ko‘pchilikka ega bo‘lishi yetarli hisoblanadi. Biroq saylovlar oldidan partiyalar turli bloklar va taktika ittifoqlarini tuzishda davom etmoqda. Masalan, 2024-yilda Adolat va Yashillar partiyalari “Yashil–Adolat partiyasi” nomi ostida chiqish qilib, Demokratlar bilan hamkorlikni kuchaytirishga intildi.

Umuman olganda, Koreya siyosiy tizimidagi fragmentatsiya doimiy va dinamik xususiyatga ega: kichik partiyalar ko‘pligiga qaramay, ular yirik bloklar bilan ittifoq tuzish yoki faqat proporsional ro‘yxatlar orqali faoliyat yuritish orqali omon qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Janubiy Koreyaning hozirgi saylov tizimi – ya'ni ko'pchilik va cheklangan proporsional vakillik aralashmasi – o'rtacha darajadagi plyuralistik partiyaviy tizimni shakllantiradi. Yirik partiyalar tizimning tuzilmasi sababli ustunlikka ega bo'lib qolmoqda, kichik partiyalar esa vakillik jihatidan cheklangan. Koalitsiyaviy xatti-harakatlar odatda saylovgacha yoki mavzuga oid tusga ega bo'lib, barqaror hukumat koalitsiyalarining shakllanishiga olib kelmaydi. 2020-yilgi islohotlar nazariy jihatdan proporsionallikni oshirgan bo'lsada, yirik partiyalarning strategik yondashuvi, ayniqsa sun'iy ro'yxatlar orqali, siyosiy tizimda parchalanishni cheklab, ikkita yetakchi partiyaga katta ko'pchilikni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Youngmi Cho and Anna Kruszezwska, "Rebranding and Rebuilding Conservative Parties in South Korea," Asian Journal of Comparative Politics 3, no. 4 (2018): 361, <https://doi.org/10.1177/2057891118795352>.
2. Jaehoon Kim, "The Party System in Korea and Identity Politics," in New Challenges for Maturing Democracies in Korea and Taiwan, ed. Larry Diamond and Gi-Wook Shin (Stanford: Stanford University Press, 2014), 77.
3. The Wall Street Journal, 2016, April. A Korean Political Party by Any Other Name is Probably Still the Same. <https://www.wsj.com/articles/a-korean-political-party-by-any-other-name-is-probably-still-the-same-1460410892>
4. Margit Tavits, "Party System Change: Testing a Model of New Party Entry," Party Politics 12, no. 1 (2006): 106, <https://doi.org/10.1177/1354068806059346>.
5. Sungsoo Kim and Hong Min Kuk, "Party Branding and Electoral Volatility in South Korea," Asian Survey 64, no. 1 (2024): 69, <https://doi.org/10.1525/as.2024.64.1.66>.
6. Jin-young Kwak, "Why Do Parties Split and Merge in South Korea?" in The New Dynamics of Democracy in South Korea, ed. Chong-Min Kim (London and New York: Routledge, 2021): 16
7. Aurel S. Croissant, "Electoral Politics of South Korea," in Electoral Politics in Southeast and East Asia, ed. Aurel Croissant et al. (Singapore: Friedrich Ebert Foundation, 2002), 257.
8. Po Jen Yap, Courts and Democracies in Asia (Cambridge: Cambridge University Press, 2017), <https://doi.org/10.1017/9781108131513>.
9. Minji Lee, "National Assembly Passes Electoral Reform Bill Amid Opposition Lawmakers' Protest," Yonhap News Agency, December 28, 2019, <https://en.yna.co.kr/view/AEN20191227003854315>.

10. Jinwan Park, (2024) Understanding satellite parties in South Korea and their dangers to democracy, – The Diplomat. Available at: <https://thediplomat.com/2024/02/understanding-satellite-parties-in-south-korea-and-their-dangers-to-democracy> (Accessed: 26 May 2025).

11. Inter-Parliamentary Union (IPU), Parline: Global Data on National Parliaments — Korea (Republic of), National Assembly (2020), accessed May 2025, <https://data.ipu.org/parliament/KR/KR-LC01/election/KR-LC01-E20200415/>